



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

# ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 4 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ  
ТОМ 8, НОМЕР 4

LOOK TO THE PAST  
VOLUME 8, ISSUE 4



ТОШКЕНТ-2025

**Бош мухаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**

**Муртазаева Рахбар Хамидовна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бош мухаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**

**Джураева Нилуфар Далибаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

**Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич**  
тарих фанлари доктори,  
профессор, академик,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бобожонова Дилором Бобожонова**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари  
университети

**Юнусова Хуршида Эркиновна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Аширов Адхам Азимбаевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
ЎзР ФА Тарих институти

**Агзамова Гулчехра Азизовна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
ЎзР ФА Тарих институти

**Бурдиашвили Майя**  
тарих фанлари доктори,  
Телави давлат университети

**Кожакеева Ляззат Темировна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Хотин-қизлар давлат педагогика  
университети

**Аминова Азиза Марковна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Навоий давлат педагогика институти

**Ульжаева Шохистахон Мамажоновна**  
тарих фанлари доктори,  
Тошкент ирригация ва кишлок  
хужалигини механизациялаш  
мухандислари институти  
Миллий тадқиқот университети

**Худайқулов Тулқин Дўстбоевич**  
Тарих фанлари доктори (DSc)  
Шаҳрисабз дала педагогика институти

**Гофоров Шокир Сафарович**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Самарқанд давлат университети

**Эргашева Юлдуз Алимовна**  
Тарих фанлари доктори, профессор,  
Қариш муҳандислик-иқтисодиёт  
институти

**Халикова Раҳбар Эргашевна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Тошкент давлат техника университети

**Ишанходжаева Замира Райимовна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Эшов Боходир Жўраевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Қариш давлат университети

**Маҳкамova Надира Раҳмановна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Тошкент ахборот технологиялари  
университети

**Кебадзе Мадонна**  
тарих фанлари доктори,  
Телави давлат университети

**Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Нукус давлат педагогика институти

**Мустафасва Нодира Абдуллаевна**  
тарих фанлари доктори  
Ўзбекистон Фанлар академияси

**Ерметов Аваз Абдуллаевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Андижон давлат университети

**Расулов Абдуллажон Нуридинович**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Наманган давлат университети

**Ковалев Борис Николаевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Санкт-Петербург Тарих институти

**Кобзева Ольга Петровна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Ауанасова Алима Мусировна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Қозогистон давлат тарихи институти

**Бегалинова Калимаш Капсамаровна**  
фалсафа фанлари доктори, профессор,  
Қозогистон Миллий университети

**Хайдаров Муродилла Махмуталиевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Тожибоев Музаффар Турдибоевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
ИИВ Академияси

**Алиева Лале**  
тарих фанлари доктори,  
Озарбайжон давлат университети

**Саипова Камола Давляталиевна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исмаилова Алмаз**  
тарих фанлари доктори,  
Догистон мустақил университети

**Иноятова Диларам Маниглиевна**  
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор  
Ўзбекистон Миллий университети

**Дорошенко Татьяна Ивановна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бабаджанова Нодира Абдуллаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Ширванова Тарана Амирага кызы**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Азербайджон давлат  
иқтисодиёт университети

**Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Гулистон  
давлат педагогика институти

**Нуруллаева Шоира Кушназаровна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Урганч давлат университети

**Толибоева Нодира Одилжоновна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон  
жаҳон тиллари университети  
**Масъул котиб**

**Теймураз Ахалмосулишвили**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Телави давлат университети

**Джоробекова Айнур Эшимбековна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Қозоғистон дипломатия академияси

**Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исаков Бахадир Нигматуллаевич**  
тарих фанлари номзоди,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Холмуродов Дилшод Рашидович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Жиззах давлат  
педагогика университети

**Одилов Аброр Анварович**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети  
**Масъул котиб**

**Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Алимардонов Отабек Қудратович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доценти  
Ўзбекистон Миллий университети

## МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


<b>1. Boxodirov Ixtiyor</b> TURKISTON HARBIY OKRUGINING ILI O‘LKASIDA ROSSIYA IMPERIYASI HUKMRONLIGINI O‘RNATISHGA QARATILGAN FAOLIYATI.....	5
<b>2. Bo‘tayev Jonibek</b> XX ASR BOSHLARIDA SAMARQAND VILOYATIDA TIBBIY XIZMAT HOLATI.....	10
<b>3. Djumamurotov G‘ulom</b> XVIII ASRNING IKKINCHI YARMI VA XIX ASR BOSHLARIDA QORAQALPOQLARNING OROL BO‘YIGA KO‘CHIB JOYLASHISHI.....	16
<b>4. Ergasheva Xusnida</b> NEFT SANOATINING MODDIY-TEXNIK BAZASI VA INFRASTRUKTURASINI RIVOJLANTIRISH.....	27
<b>5. Кобзева О.П.</b> СКАНДИНАВСКИЕ ИССЛЕДОВАТЕЛИ ШЕЛКОВОГО ПУТИ.....	34
<b>6. Rahmatov Muhridin</b> TATAR ZIYOLILARINING TURKISTON TA‘LIM TIZIMINI YO‘LGA QO‘YILISHIDAGI ISHTIROKI VA UNING NATIJALARI.....	40
<b>7. Ruzikulova Maftunaxon</b> MARKAZIY FARG‘ONA SUV XO‘JALIGINING MOLIVAVIY TA‘MINOTI VA UNDAGI MUAMMOLAR (1950-1991-yillar).....	46
<b>8. Саттаров Акрам</b> XIX АСР ЎРТАЛАРИДА ТУРКИСТОНДАГИ ДЕМОГРАФИК ВАЗИЯТ.....	52
<b>9. Tishabayev Alisher</b> O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MALAKALI SPORTCHI MUTAXASSIS KADRLAR TAYYORLASH TIZIMIDAGI O‘ZGARISHLAR (1991-2019-yillar).....	58
<b>10. Toliboyeva N.O.</b> O‘ZBEKISTONDA MADANIY-MA‘RIFIY SOHANING YUKSALISHI.....	66
<b>11. Хайдаров Муродилла</b> ФРЕДЕРИК СТАРР. МАРКАЗИЙ ОСИЁНИ ҚАЙТА КАШФ ЭТИБ.....	71
<b>12. Baxtiyor Yuldashev, Xusnida Ergasheva</b> SOVET DAVLATI HUKMRONLIGI YILLARIDA O‘LKADA NEFT SANOATINI RIVOJLANTIRISHGA DOIR CHORA-TADBIRLAR.....	81



**Tishabayev Alisher Maxamatdjanovich**  
Fargʻona davlat universiteti tadqiqotchisi  
e-mail: tishabayev11@gmail.com

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MALAKALI SPORTCHI MUTAXASSIS  
KADRLAR TAYYORLASH TIZIMIDAGI O‘ZGARISHLAR (1991-2019-yillar)**

**For citation:** Alisher M.Tishabayev. CHANGES IN THE SYSTEM OF TRAINING QUALIFIED SPORTS SPECIALISTS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN (1991-2019). Look to the past. 2025, vol. 8, issue 4, pp.58-65

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15380674>

**ANNOTATSIYA**

Mazkur ilmiy maqolada O‘zbekiston Respublikasida 1991-2019-yillar mobaynida jismoniy tarbiya va sport sohasiga doir malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash tizimining yo‘lga qo‘yilishi, undagi islohotlar jarayonlari tarixi birlamchi manbalar va ilmiy adabiyotlardagi ma’lumotlar yordamida atroflicha tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** O‘zbekiston, jismoniy tarbiya va sport, islohot, o‘zgarish, mutaxassis kadrlar, jismoniy madaniyat, taraqqiyot.

---

**Тишабаев Алишер Махаматджанович**

соискатель Ферганского государственного университета  
электронная почта: tishabaev11@gmail.com

**ИЗМЕНЕНИЯ В СИСТЕМЕ ПОДГОТОВКИ СПОРТСМЕНОВ-  
СПЕЦИАЛИСТОВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН (1991-2019 гг.)**

**АННОТАЦИЯ**

В данной научной статье с помощью первоисточников и информации научной литературы подробно анализируется становление системы подготовки квалифицированных специалистов в области физического воспитания и спорта в Республике Узбекистан в период 1991-2019 годов, история процессов реформирования в ней.

**Ключевые слова:** Узбекистан, физическое воспитание и спорт, реформа, изменения, кадры специалистов, физическая культура, развитие.

---

**Tishabayev Alisher Makhamatdjanovich**

Researcher of Ferghana State University  
e-mail: tishabayev11@gmail.com

**CHANGES IN THE SYSTEM OF TRAINING QUALIFIED SPORTS SPECIALISTS  
IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN (1991-2019)**

**ABSTRACT**

This scientific article provides a comprehensive analysis of the history of the establishment of the system of training qualified specialists in the field of physical education and sports in the Republic of Uzbekistan during 1991-2019, the processes of reforms in it, using primary sources and information from scientific literature.

**Index Terms:** Uzbekistan, physical education and sports, reform, change, specialist personnel, physical culture, development.

**1. Dolzarbligi:**

Respublikaning istiqbolga erishuvi istiqbolli barcha sohalar kabi jismoniy madaniyat harakatining qator tarmoqlari va tizimlarida jismoniy tarbiya, sport sohasidagi mutaxassis kadrlar tayyorlash, ularning ish malakalarini davr talablari asosida olib borishni talab qildi. Mustaqillik davriga kelib jismoniy tarbiya va sport boshqaruvining zamonaviy tizimlarini shakllantirishga alohida e'tibor berildi. Bunday mazmundagi ishlarni jismoniy tarbiya va sport kadrlari ko'magidan tashqari holatda tasavvur qilish mushkuldir. Har qanday sport musobaqasi yoki sport mashg'ulotlarining samarasi birinchi navbatda kadrlar malakasi va ularning yetuk tajribasi bilan chambarchas bog'liq. Birinchi navbatda sohani kadrlar bilan ta'minlash maqsadida oliy ta'lim muassasalarida sport kadrlari tayyorlash tizimi yo'lga qo'yildi. Shu bilan bir qatorda, bolalar sporti uchun pedagog murabbiylar tayyorlash bo'yicha muayyan ishlar ham amalga oshirildi.

**2. Metodlar va o'rganilganlik darajasi:**

Dastavval 1997-yil 29-avgustda respublikada qabul qilingan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi qonunni amal qilishi hamda 2020-yilning 23-sentabrida "Ta'lim to'g'risida"[1]gi 637-son qonunning qabul qilinishi bilan mazkur hujjat o'z ahamiyatini yo'qotganligi, unda ta'lim oluvchilarning psixologik va o'ziga xos xususiyatlarini, jismoniy va ruhiy salomatligini hamda birinchi navbatda fiziologik rivojlanishini hisobga olish masalalariga alohida urg'u berildi. Bu esa o'z navbatida barcha ta'lim muassasalarida faoliyatda bo'lgan soha mutaxassislari oldiga qator muhim vazifalarni yukladi.

**3. Tadqiqot natijalari:**

Mamlakatda yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimi aynan istiqbolning dastlabki davrlaridanoq rivojlanib bordi. Xususan, tayanch oliygoh hisoblangan - O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya universiteti huzurida 1996-yilda ixtisoslashgan ilmiy kengash faoliyatining yo'lga qo'yilishi sohaga doir yuqori malakali kadrlar tayyorlash ishiga yaqindan ko'maklashdi [2]. 1997-yildan e'tiboran respublikada magistr-talabalar qabul qilinishining boshlanishi ilmiy-pedagogik kadrlarni ko'paytirish hamda olimlarning ilmiy-ijodiy faoliyatlarini takomillashtirishga yaqindan yordam berdi. Bu yo'lda esa mazkur universitet olimlaridan- F.A.Kerimov, L.R.Ayrapetyans, farg'onalik Sh.H.Xonkeldiev, buxorolik A.Q.Atoyevlarning jismoniy tarbiya va sport sohasiga doir yosh tadqiqotchilarni tanlash hamda ularga kerakli amaliy yordam berish ishida xizmatlari katta bo'ldi [3].

Respublika sportini taraqqiy ettirishda sohaga kerakli bo'lgan mutaxassislarning o'quv jarayonlarini takomillashtirish, ularga tegishli mashg'ulot yuklamalarini optimallashtirish, jismoniy sifatlarini oshirish masalalari alohida muammo sifatida tadqiq etildi. Zero, "Jismoniy tarbiya va sport sohasida xalqaro standartlarga muvofiq kompleks bilimlarga ega malakali kadrlar tayyorlash sifatini yaxshilash, sportda ilm-fanni jadal rivojlantirish, yuqori malakali raqobatbardosh trener-o'qituvchilar, mutaxassislar hamda ilmiy xodimlarni tayyorlash jarayonlarini yanada takomillashtirishga qaratilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda"[4]. Ushbu sa'y-harakatlar natijasida esa sohaga doir mutaxassis kadrlarni tayyorlash tizimi yil sayin asta-sekin takomillashib bordi.

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya universiteti, viloyatlardagi oliy o'quv yurtlarining 16 ta jismoniy tarbiya fakultetlari oliy ma'lumotli kadrlarni, har bir viloyat markazida yangidan (1999-2001-yillar) tashkil etilgan olimpiya zaxiralari tayyorlashga ixtisoslashgan o'rta bo'g'in kasb-hunar kollejlari o'rta ma'lumotli jismoniy tarbiya mutaxassislarni tayyorlashga mutasaddilik qildilar. Masalan, 2006-yili mazkur oliy ta'lim dargohida mamlakatning turli viloyatlaridan kelgan 2 mingga

yaqin talabalar tahsil oldilar hamda mazkur universitetda jismoniy tarbiya muallimlari va sport murabbiy-muallimlarini tayyorlash ishlari amalga oshirildi. Shu bilan birga, universitetda “Xotin qizlar sportini rivojlantirish” yo‘nalishi tashkil qilinib, yuqori malakali ayol trenerlar va jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini tayyorlash ishlari jadallashdi. Mazkur o‘quv muassasasida yetuk mutaxassis kadrlar tayyorlashda rektorlardan A.Q.Hamroqulov va R.Q.Qudratovlarning o‘rni beqiyos bo‘ldi. Mazkur dargohdagi 20 dan ortiq mavjud kafedralarda 10 dan ziyod fan doktorlari (DSc), professorlar, 100 ga yaqin fan nomzodlari, falsafa doktorlari (PhD) hamda dotsentlar, o‘nlab O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan sport murabbiylarining nomlari ma‘lum va mashhur bo‘ldi [5]. Keltirib o‘tilgan ustozlardan - R.S.Salomov, T.T.Yunusov, R.D.Xolmumammedov (boks), A.Rasulova, G.G.Arzumonov (engil atletika), G.B.Abdurasulova (qilichbozlik), O.O.Po‘latov (voleybol), Z.H.G‘afurova (pedagogika va psixologiya), Sh.Isroilov (jismoniy tarbiya nazariyasi), O.R.Toymurodov (sport kurashi) va U.R.Niyozbekovlarning (gimnastika) faoliyatini ayniqsa tahsinga loyiq deya, hisoblash maqsadga muvofiq [6].

Sport sohasiga oid malakali mutaxassis kadrlar tayyorlashda Samarqand davlat universiteti jismoniy tarbiya fakultetining ham o‘rni salmoqlidir. Universitetda ancha yillardan buyon taniqli sport murabbiylari hamda tajribali pedagoglar faoliyatda ko‘rsatib keldilar. Talaba-yoshlarning sog‘lomlashtirish sport oromgohi esa Omonqo‘ton tog‘li-o‘rmon xo‘jaligida joylashgan bo‘lib, bu yerda oromgoh spartakiadasini o‘tkazish har yili an‘anaga aylandi. O‘quv muassasasi talabalari turli xalqaro musobaqalarda ishtirok etib, muvaffaqiyatlarga erishib bordilar. Ayniqsa, oliy o‘quv yurtlari o‘rtasida o‘tkazilib kelinayotgan “Universiada” sport musobaqalarida universitet yoshlari faol qatnashdilar.

Ta‘kidlash joizki, kadrlar faoliyatining dastlabki o‘n yilligini sarhisob qilsak, 1991-yilda 29134 nafar jismoniy madaniyat va sport sohasida kadrlar mavjud bo‘lgan bo‘lsa, bu 10 yillik oxirida mazkur ko‘rsatkich 34952 nafarga yetdi [7]. Bulardan 21557 tasi maktablarning jismoniy tarbiya o‘qituvchilari, 1 023 tasi kasb-hunar kollejlari, 932 tasi o‘rta maxsus o‘quv yurtlarining jismoniy tarbiya o‘qituvchilaridan iborat bo‘ldi [8]. Aynan shu davrda oliy o‘quv yurtlarida 877 nafar jismoniy tarbiya o‘qituvchilari faoliyat ko‘rsatdi. Barcha sohalardagi murabbiylarning soni 6353, sport tashkilotlarining rahbarlari, mas‘ul xodimlari va boshqa sohalardagi kadrlar esa 4210 nafar kishini tashkil qildi. Umumta‘lim maktablarida 11983 ta oliy ma‘lumotli o‘qituvchilar yoshlarga ta‘lim berdi [9]. Alohida ta‘kidlash joizki, xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlari uchun malakali kadrlar tayyorlashda jismoniy tarbiya va sportning o‘ziga xos o‘rni katta bo‘ldi. Bu islohotlar mazmuni asosan jismoniy tarbiya darslari, sport turlari bo‘yicha o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar hamda har xil sport musobaqalarida o‘z aksini topdi.

Yuqori malakali sportchi kadrlarni tayyorlashga ixtisoslashgan o‘quv-tarbiya muassasasi maqomidagi sport maktablarining 3 asosiy turi mavjud bo‘lib, bu muassasalar BO‘SMlar, bolalar va o‘smirlar ixtisoslashgan olimpiya maktablari hamda oliy sport mahorati maktablaridan iborat bo‘ldi. 2004-yili O‘zbekistonda 570 dan ortiq har xil turdagi sport maktablari faoliyatda bo‘ldi [10]. Xotin-qizlar o‘rtasida jismoniy madaniyat va sportni rivojlantirish, ayniqsa, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda mahalliy millat xotin-qizlaridan R.A.Qozieva (jismoniy tarbiya tarixi), O.Sobirova (suvda suzish), K.T.Rahimjonova (engil atletika), G.B. Abdurasulova (qilichbozlik) va R.A.Qosimova (qo‘l to‘pi) kabi olimlarning hissasi katta bo‘ldi [11].

2002-yildan to 2012-yilgacha sohadagi sportchi va xodimlarning o‘shish soni 37 485 tadan 50 868 nafarga ortdi, ya‘ni u 73,6 foizni tashkil qildi. Ularning viloyatlar kesimi bo‘yicha soni ilovadagi jadvalda berilgan. Oliy va o‘rta maxsus jismoniy tarbiya va sport ta‘limiga ega bo‘lganlar soni 2002-yilda 37 485 tadan 2012-yilga kelib 50 868 nafar kishiga yetdi, ya‘ni u 65,5 foizni tashkil etdi [12]. Mazkur sohadagi mutaxassislarning sonini hududlar kesimida tahlil qilsak, 2012-yilga kelib eng katta o‘shish ko‘rsatkichi Farg‘ona va Samarqand viloyatlariga to‘g‘ri keldi, ya‘ni umumiy sportchilar soniga nisbatan o‘shish 10 foizdan ko‘proqni tashkil qildi, ulardan oliy ma‘lumotlilari 2002-yildagi 10,6 foizdan 2012-yilga kelib 12 foizga oshdi. Qishloq joylardagi sohaga doir sportchi va xodimlarning o‘shishi ularning umumiy soniga nisbatan olganda 2002-yildagi 62,5 foizdan 2012-yilga kelib 171,3 foizga ortdi [13].

2010-yili respublikadagi 64 ta oliy o'quv yurtida, xususan, 20 ta universitet, 44 ta institut, 600 taga yaqin o'rta maxsus o'quv muassasalarida jismoniy tarbiya kafedralari faoliyati yo'lga qo'yildi[14]. Sport o'yinlari va jismoniy faoliyat turlari talabalarning kundalik hayot tartibidan alohida o'rin olib, qator o'quv muassasalarida hamda talabalar turar joylarida sport to'garaklariga asos solindi hamda faoliyat ko'rsata boshladilar. Mazkur to'garaklarni sohaga doir yuqori malakali o'qituvchilar hamda ustozlar boshqardilar. Bu o'quv muassasalarida talaba va o'qituvchilar, o'qituvchi va sport ustozlari boshchiligida turli sport turlari bilan amaliy shug'ullanishlaridan tashqari ilmiy izlanish ishlarini olib borish ham tobora ommalashib bordi. Masalan, 2014-yili Respublika xalq ta'limi tizimidagi 9 739 ta maktabda 25169 ta (6160 nafari ayollar) nafar jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari mehnat faoliyatida bo'ldi[15]. 2013-yili Buxoro viloyatidagi mavjud sport inshootlarida 1212 nafar murabbiy (shundan 396 nafari ayol), maktab sport zallarida 1518 nafar jismoniy tarbiya o'qituvchilari (shundan 581 nafari ayollar) faoliyat ko'rsatdi. BSRJ tomonidan qurilgan sport inshootlarida 398 ta (undan 142 ta ayollar) murabbiylar hamda 182 ta (undan 42 ta ayollar) sohaga oid fan o'qituvchilari yosh sportchilarga saboq berdi. Viloyatda mutaxassis kadrlar bilan ta'minlanish darajasi 100 foizni tashkil qildi. Sohaga doir murabbiy kadrlarni tayyorlash maqsadida Buxoro davlat universiteti va 18 ta kasb-hunar kollejida jismoniy tarbiya fakulteti hamda bo'limlari tashkil etildi. 2013-yili mazkur yo'nalish bo'yicha universitetning jismoniy tarbiya fakultetida 617 nafar (shundan 111 nafari qizlar), kasb-hunar kollejlari esa 1722 nafar (shundan 509 nafari qizlar) talabalar tahsil oldi. Mazkur yilda mamlakatdagi mavjud oliygohlarning jismoniy tarbiya yo'nalishini tamomlagan 131 nafar yosh kadr (shundan 16 nafar ayol mutaxassislar) ishga joylashtirildi. Shuningdek, 296 nafar (87 nafar ayol) jismoniy tarbiya o'qituvchilari va murabbiylar malaka oshirdilar[16].

Sohaga doir kadrlar faoliyati haqida so'z borganda hakamlar erishgan yutuqlarni ham ta'kidlash joiz. Xususan, 2014-yili Filippin poytaxti Manilada Osiyo Futbol konfederatsiyasi tashkil etilganining 60 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan marosimda yakuniga yetgan futbol mavsumining turli nominatsiyalar bo'yicha tengsiz deb topilgan laureatlari taqdirlandi. Ularning orasida o'zbekistonlik FIFA referisi R.Ermatov beshinchi marotaba "Osiyoning eng yaxshi hakami" sifatida mukofotlandi. Ta'kidlash joizki, 2003-yildan buyon FIFA tasnifidagi musobaqalarni boshqargan R.Ermatov futbol bo'yicha deyarli barcha nufuzli turnirlar, jumladan, 2007 va 2009-yillarda o'smirlar va yoshlar o'rtasidagi jahon birinchiliklarida, 2008 va 2011-yillarda klublar o'rtasidagi jahon chempionatlari finalida, shuningdek, 2010 va 2014-yilgi jahon chempionatlari, 2011-yilgi Osiyo kubogi finali, 2012-yilgi XXX yozgi Olimpiya o'yinlarining futbol uchrashuvlari, 2013-yilda esa Braziliyada o'tgan konfederatsiyalar kubogi bahslarida hakamlilik qildi. Xalqaro futbol uyushmalari federatsiyasi (FIFA) esa uni 2011-yilda "Jahonning eng yaxshi hakami" sifatida e'tirof etdi[17]. O'zbekiston Prezidentining 2014-yil 25-iyuldagi farmoniga binoan xalqaro maydonda mamlakatning sport sohasidagi shon-shuhratini yuksaltirish, o'zbek futboli nufuzini oshirish ishiga qo'shgan munosib hissasi uchun Ravshan Ermatov "El yurt hurmati" ordeni bilan mukofotlandi.

Mamlakatda shaxmat sportiga doir kadrlar tayyorlash tizimi takomillashtirildi. Ushbu sport turini xalqarolashuvini jiddiy inobatga olgan holda, 2014-yili Respublika shaxmat federatsiyasining sa'y-harakati o'laroq Rossiya davlat jismoniy tarbiya institutining "shaxmat" ixtisosligi bo'limiga 4 nafar yosh o'zbek shaxmatchilari o'qishga yuborildi. Ular S.Qurbonboeva, E. Aliqulov, G.Esanboeva va S.Zayniddinoyalardan tarkib topgan bo'lib, shaxmatchilar Moskvada o'qishini davom ettirishga muvassar bo'ldi va shaxmat sohasida tashkilotchilik hamda boshqaruv ishlarida mutaxassislikka ega bo'lib respublikaga qaytishdi[18]. Shu o'rinda e'tirof joizki, shaxmat sohasida tashkilotchilik va boshqaruv ishlarida mutaxassislarning tanqisligi sezilishi natijasida ularni Rossiyaga yuborildi.

Shiddat bilan rivojlanib borgan boks sport turini yoshlar orasida ommaviylashtirishda ko'plab trenerlarning o'rni beqiyosdir. Jumladan, 2013-2016-yillari O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasi tashabbusi bilan boks bo'yicha milliy terma jamoaga tajribali trenerlardan M.Kuchkarov, M.Kurbanov, T.Qilichev, L.Qo'chqorov, R.Ruziaxonovlar jalb qilinib, sport mashg'ulotlariga professor R.Xalmuxamedov rahbarligida kompleks ilmiy guruh biriktirildi hamda mashg'ulotlarni ilmiy asoslangan va kollegial tizimda hal etilgan rejalar asosida olib borish yo'lga qo'yildi [19]. Bu

samarali mehnat tufayli o'zbek boks maktabi nafaqat avvalgi mavqeini tikladi, balki Osiyo, jahon chempionatlari va qator xalqaro musobaqalarda eng kuchlilar orasidan joy egalladi. Murabbiylarni mutaxassis sifatida bergan foydali maslahatlari va sa'y-harakatlari tufayli 2016-yildagi Braziliyaning Rio-de-Janeyro shahrida bo'lib o'tgan olimpiada o'yinlarida milliy terma jamoa bokschilari O'zbekiston tarixida ilk bor jami 7 medal bilan (uchtasi oltin) umumjamoa hisobida faxrli 1-o'rinni egallashga muvaffaq bo'ldilar[20].

2015-yil 4-sentabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"[21] gi O'RQ-394-son qonunining aynan 32-moddasiga muvofiq mamlakatda yuqori malakali sportchilarni hamda sport zaxirasini tayyorlashga moslashtirilgan ta'lim muassasalari sonini ko'paytirish va bu jarayonda olimpiya zaxiralari kollejlari, BO'SMLar, turli nodavlat sport jamiyatlari tomonidan amalga oshirilishi qonun yo'li bilan mustahkamlab qo'yildi. Bundan tashqari, unda yosh tajribali va malakali sportchilarni tayyorlash hamda sport zaxirasini zarur sport kiyimlari, zamonaviy sport jihoz va anjomlari, eng asosiysi sohani biologik va tibbiy-tiklovchi preparatlar bilan to'la ta'minlash, respublika sporti vakillarining kuch-quvvat sarflarini hamda jismoniy resurslarini kompensatsiya qilishni yo'lga qo'yish, sohadagi tibbiy xizmat ko'rsatish jihatini (jumladan, profilaktika va davolash ishlari) ta'minlashga doir barcha sarf-xarajatlar xarajatlarning o'rnini to'la qoplanishini qonun yo'li bilan amalga oshirilishiga mazkur huquqiy hujjatda alohida urg'u berildi.

2015-yil 23-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy mahorat sport maktablarini tashkil etish to'g'risida"[22] gi 2438-son qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq, O'zbekiston sharafini jahon sport maydonlari – Olimpiya va Osiyo o'yinlarida, jahon va Osiyo chempionatlarida, turli mazmundagi o'tkaziladigan sport bellashuvlarida yakdil muhofazalashga loyiq xalqaro talablarga mos keluvchi sportchi-murabbiylarni tayyorlashning yuqori samara beruvchi tizimiga asos solish, shs maqsadni amalga oshirishda esa jahon standartlariga to'la mos bo'lgan zarur sport uskunalari orqali jihozlangan turli mazmundagi o'quv-mashq bazalarini tobora shakllantirish, sportchilarni tayyorlash jarayoniga eng yangi ilmiy-metodik texnologiyalarni egallagan yuqori malakali murabbiy-o'qituvchi kadrlarni keng jalb qilish maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi, barcha viloyatlar va Toshkent shahrida 14 ta Oliy mahorat sport maktablari tashkil qilindi. Shu bilan birga, bu maktablarning shakllantirilgan o'quv bazasida turli amaliy ishlarni amalga oshirish, jumladan, milliy terma jamoalar hamda ularga tegishli zaxiralar yordamida bir qator o'quv-mashq yig'inlari, respublika hamda mintaqaviy ahamiyatga molik sport bellashuvlarini uyushtirish va muntazam o'tkazishni yo'la qo'yish, sport turlari bo'yicha murabbiylarning kasbga doir mahorat darajalarini orttirish maqsadida tajribalarni almashish uchun turli xorijiy sport maktab, klubi hamda markazlari bilan yaqindan hamkorlik aloqalarini o'rnatish vazifalari kuchga kiritildi.

Uzoq yillar faoliyatda bo'lib, sohada muhim natijalarga erishgan yuksak malakali sport ustozlari, murabbiylari, xususan, xotin-qiz murabbiylarining samarali mehnatlarini rag'batlantirish bo'yicha mamlakatda yangi, samarali tizim joriy etilgani bugungi kunda o'z natijasini berganini ko'rish mumkin. Buning tasdig'ini 2015-yilda sport bo'yicha murabbiy va o'qituvchilar 2005-yilga nisbatan 1,5 barobar ko'payganidan, jumladan, ayol sport ustozlari 3,8 barobar oshganidan ham yaqqol ko'rish mumkin [23].

2015-yilda mamlakatning umumta'lim maktablarida 25169 nafar jismoniy tarbiya o'qituvchilari, shundan 6763 nafari ayol, BO'SMLarda esa jami 9983 nafar murabbiylar, shundan 2536 nafari ayol murabbiylar faoliyat ko'rsatdi [24]. Aynan shu yil bolalar sporti obyektlaridagi murabbiy-o'qituvchilar soni 10 612 nafar, jumladan, ayollar 2809 nafarni, ya'ni 26,5 foizni tashkil qildi. Shundan ma'lumot darajasi bo'yicha oliy ma'lumotli murabbiylar – 5045 nafar (47,5 foiz), ulardan ayollar – 1327 nafar (47,2 foiz)ni tashkil etdi [25]. 2016-yil Respublika bo'yicha sport inshootlarida 10 ming 75 nafar o'qituvchi-murabbiylar faoliyat yuritdi, ulardan 4 ming 667 nafari oliy ma'lumlilar – 43,4 foiz, 5 ming 599 nafari o'rta-maxsus ma'lumotlilar – 56,6 foizni tashkil etdi. Xalq ta'limi tizimidagi maktablarda mazkur yili 25603 nafar jismoniy tarbiya fani bo'yicha o'qituvchilar ishladi. Ularning 17735 nafari (69,2 foiz) oliy ma'lumotlilar, 7868 nafari (30,8 foiz) o'rta maxsus ma'lumotli mutaxassislardan tarkib topdi [26]. Jismoniy tarbiya fani bo'yicha o'rta-

maxsus ma'lumotli o'qituvchilar soni Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand, Toshkent, Xorazm viloyatlarida aksar ko'pchilikni tashkil qildi. Jismoniy tarbiya fani bo'yicha o'qituvchilar uchun o'qituvchi metodik qo'llanmasi 2003-yilda yaratildi, biroq u hozirga qadar ham qo'llanma sifatida chop etilmadi.

Sohaga doir yuqori malakali sportchi kadrlar hamda tajribali murabbiylarni tayyorlash ishida hamda ularning tizimli ravishda malakasini oshirib borish masalalari muhim, dolzarb ahamiyatga ega bo'lib, mamlakatda bu boradagi mutaxassislarni tayyorlash hamda qayta tayyorlash ishlari yil sayin ortib bordi. Ularning malakasini oshirishga taalluqli ustuvor vazifalar esa joylarda bosqichma-bosqich tarzda uzviy amalga oshirib kelindi. Birgina amaliy ish sifatida 2017-yilda O'DJTI Chirchiq shahriga ko'chirilishi va oliygoh hayotida qator ijobiy o'zgarishlar yuz berganligini ko'rsatish maqsadlidir. Keltirish joizki, qayd qilingan sa'y-harakatlar natijasi o'laroq institutning moddiy-texnik bazasi yanada mustahkamlandi, bu yerda malakali sportchi hamda murabbiylarni o'qitish hamda tayyorlash uchun zarur infratuzilma yaratildi hamda sport shaharchasi barpo etilib, foydalanishga topshirildi. Institutda 2017-2018 o'quv yilidan e'tiboran yoshlar sirtqi ta'lim olish huquqini qo'lga kiritdilar. O'DJTI qoshida jismoniy tarbiya, sport bo'yicha mutaxassis kadrlarni ilmiy-metodik ta'minlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazi ochildi. Birgina 2017-yili mazkur markazda 800 dan ortiq xodimlar malaka oshirdilar [27].

2019-yili respublikada sportga doir boshqaruv kadrlari tayyorlash tizimini yo'lga qo'yishni zamon talablari asosida yo'lga qo'yish maqsadida oliy ta'lim muassasalarining soni 3 taga, soha kadrlarini qayta tayyorlashga ko'mak beruvchi muassasalar soni esa 4 taga yetkazildi. Jumladan, P.F. Lesgaft nomidagi Sankt-Peterburg milliy davlat jismoniy tarbiya, sport va salomatlik universiteti bilan hamkorlikda qo'shma jismoniy tarbiya, sport va salomatlik fakultetida sohaga doir kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi [28].

#### **Xulosa:**

Xulosa qilib aytganda, istiqbol yillari respublikada sohaga doir mutaxassis kadrlar tayyorlash tizimida muhim islohotlar, sa'y-harakatlar amalga oshirildi. Sport turlariga ixtisoslashgan oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlaydigan o'quv yurtlari soni yildan-yilga o'sib bordi. Ayniqsa xalqaro va milliy sport turlari bo'yicha kadrlar tayyorlash ishiga - O'DJTSU, O'zMU va Jizzax davlat pedagogika institutlari mutasaddilik qildilar. Mazkur o'quv dargohlarida bir qator yo'nalishlarning ochilishi mutassislar salmog'i ortishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatdi. Bu borada xalqaro o'quv yurtlari aloqalar o'rnatildi, xususan, Belarus hamda Rossiya Federatsiyasi bilan hamkorlikda mutaxassis kadrlar tayyorlash bo'yicha filiallarga asos solinishi, eng avvalo, sohadagi mutaxassis kadrlar tayyorlash tizimida modernizatsion jarayonlar avj olganligini yaqqol ko'rsatadi. Ko'plab sport turlariga doir o'rta bo'g'in sportchi kadrlar tayyorlashda olimpiya zaxiralari kollejlari yetakchilik qildi.

#### **Iqtiboslar/Сноски/References**

[1] <https://lex.uz/docs/5013007/> Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.09.2020 й., 03/20/637/1313-сон (<https://lex.uz/docs/5013007/> National database of legal documents, 24.09.2020, No. 03/20/637/1313).

[2] Eshnazarov J. Jismoniy madaniyat tarixi va boshqarish.-Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2008.-B.321 (Eshnazarov J. History and management of physical culture.-Tashkent: Science and technologies, 2008.-P.321).

[3] O'zbekiston Milliy arxivi (O'z MA), M.38-fond, 1-ro'yxat, 45-yig'majild, 12-varaq (National Archive of Uzbekistan (O'z MA), Fund M.38, List 1, Volume 45, Sheet 12).

[4] Якубов Ф.М. Бўлажак жисмоний тарбия ва спорт мутахассисларининг тафаккур тарзини ривожлантириш механизмларини такомиллаштириш: Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дис ... автореф. –Чирчиқ, 2021. –Б.5. (Yakubov F.M. Improving the mechanisms for developing the thinking style of future physical education and sports specialists: Abstract doctor of Philosophy (PhD) dissertation in Pedagogical Sciences. –Chirchik, 2021. –P.5).

- [5] Tashpulatov F.A. Jismoniy tarbiya va sport.-Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2019.-B.71. (Tashpulatov F.A. Physical education and sports.-Tashkent: National Society of Philosophers of Uzbekistan, 2019.-P.71).
- [6] O‘z MA, M.1-fond, 16-ro‘yxat, 12-yig‘majild, 6-varaq (NA Uz, M.1-fund, list 16, volume 12, sheet 6).
- [7] O‘z MA, M.38-fond, 2-ro‘yxat, 4-yig‘majild, 18-varaq (NA Uz, M.38-fond, list 2, volume 4, sheet 18).
- [8] Eshnazarov J. Jismoniy madaniyat tarixi va boshqarish.-Toshkent: Fan va texnologiya, 2008.-B.282 (Eshnazarov J. History and management of physical culture.-Tashkent: Science and technology, 2008.-P.282).
- [9] O‘z MA, M.1-fond, 16-ro‘yxat, 12-yig‘majild, 18-varaq (NA Uz, M.1-fund, list 16, volume 12, sheet 18).
- [10] O‘z MA, M.1-fond, 16-ro‘yxat, 12-yig‘majild, 22-varaq (NA Uz, M.1-fund, list 16, volume 12, sheet 22).
- [11] Eshnazarov J. Jismoniy madaniyat tarixi va boshqarish ... –B.313. (Eshnazarov J. History and management of physical culture ... –P.313).
- [12] G‘ulomov Z.T., Nabiullin R.X., Kamilova G.Z. Jismoniy tarbiya va sport menejmenti. –Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.-B.218. (Gulyamov Z.T., Nabiullin R.Kh., Kamilova G.Z. Physical education and sports management. –Tashkent: Science and technology, 2015.-P.218.).
- [13] O‘z MA, M.38-fond, 4-ro‘yxat, 74-yig‘majild, 202-varaq.( NA Uz, M.38-fond, list 4, volume 74, sheet 202).
- [14] Normurodov A.N. Jismoniy tarbiya... –B.31.(Normurodov A.N. Physical education... – P.31)
- [15] O‘z MA, M.1-fond, 16-ro‘yxat, 12-yig‘majild, 25-varaq. (NA Uz, M.1-fund, list 16, volume 12, sheet 25).
- [16] O‘z MA, M.1-fond, 16-ro‘yxat, 12-yig‘majild, 43-varaq. (NA Uz, M.1-fond, list 16, volume 12, sheet 43.).
- [17] Obidov S. Osiyoning beshinchi bor tengsiz hakami / Sport yangiliklari, 2014-yil 3-dekabr. (Obidov S. Asia's fifth-best referee / Sports news, December 3, 2014)
- [18] O‘z MA, M.38-fond, 2-ro‘yxat, 44-yig‘majild, 49-varaq. (NA Uz, M.38-fond, list 2, volume 44, sheet 49.).
- [19] Turdiyev F. Jismoniy tarbiya va sport sohasida innovatsion yondashuv- davr talabi / Sport, 2019-yil 2 iyul. (Turdiyev F. Innovative approach in the field of physical education and sports - a requirement of the time / Sport, July 2, 2019).
- [20] O‘z MA, M.1-fond, 16-ro‘yxat, 12-yig‘majild, 48-varaq. (NA Uz, M.1-fond, list 16, volume 12, sheet 48.).
- [21] Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами.–Тошкент: Адолат, 2015. - №36, 473-модда. –Б.42-53. (Collection of Legislative Acts of the Republic of Uzbekistan.–Tashkent: Adolat, 2015. -№36, Article 473. –P.42-53.).
- [22][https://lex.uz/ru/docs/-2823471-O‘zbekiston-respublikasi-prezidentining-qarori-23-11-2015](https://lex.uz/ru/docs/-2823471-O'zbekiston-respublikasi-prezidentining-qarori-23-11-2015) ([https://lex.uz/ru/docs/-2823471-Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan dated 23-11-2015](https://lex.uz/ru/docs/-2823471-Resolution-of-the-President-of-the-Republic-of-Uzbekistan-dated-23-11-2015))
- [23] O‘z MA, M.1-fond, 16-ro‘yxat, 12-yig‘majild, 53-varaq. (NA Uz, M.1-fond, list 16, volume 12, sheet 53.).
- [24] O‘z MA, M.1-fond, 16-ro‘yxat, 12-yig‘majild, 54-varaq. (NA Uz, M.1-fond, list 16, volume 12, sheet 54.).
- [25] Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi me‘yoriy-huquqiy hujjatlar to‘plami.-Toshkent, 2016.-B.195 (Collection of regulatory and legal documents in the field of physical education and sports. - Tashkent, 2016. - P.195).
- [26] Aytmurodov B. Mamlakat sporti salohiyatini ko‘taraylik / Sport, 2016-yil 28 avgust (Aytmurodov B. Let us raise the potential of national sports / Sport, August 28, 2016).

[27] O‘z MA, M.38-fond, 10-ro‘uxat, 12-yig‘majild, 34-varaq. (NA Uz, M.38-fond, list 10, volume 12, sheet 34.).

[28] Ўзбекистон Республикаси Жисмоний тарбия ва спорт вазирлиги жорий архивининг 2019 йилдаги жисмоний тарбия ва спорт соҳасида бажарилган ишлари бўйича ҳисоботидан. –В.448. (From the report of the current archive of the Ministry of Physical Culture and Sports of the Republic of Uzbekistan on the work carried out in the field of physical culture and sports in 2019. –P.448)

# ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 4 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 4

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 4

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000